

# О‘ЗBEK XALQ ERTAKLARI DISKURSIDA KO‘CHIM IFODALOVCHI SHAKLLARNING LINGVOKULTUROLOGIK VERBALLASHUVI

Farg'ona davlat universiteti 2-bosqich magistratni

Niyozmatova Qizlarxon

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada o‘zbek xalq ertaklarining diskursida qo‘llaniladigan ko‘chim ifodalovchi vositalar hamda fonostilistik birliklarning lingvokulturologik xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda metafora, personifikatsiya, ramz kabi vositalarning milliy tafakkur bilan bog‘liqligi, shuningdek, alliteratsiya, assonans, geminatsiya kabi fonopoetik elementlarning badiiy matn estetik yaxlitligini shakllantirishdagi o‘rni yoritiladi. Kognitiv lingvistika nuqtayi nazaridan ertaklarda “baxt”, “qo‘rquv” kabi konseptlarning verbalizatsiyasi ochib beriladi.

**Kalit so‘zlar:** lingvopoetika, kognitiv metafora, fonopoetika, konseptualizatsiya, arxetip, o‘zbek xalq ertaklari, etnomadaniy semantika.

**Abstract:** This article examines the linguocultural verbalization of figurative expressions and phonostylistic units in the discourse of Uzbek folk tales. The study analyzes the role of metaphor, personification, and symbolism as reflections of national worldview, as well as the contribution of phonopoetic elements such as alliteration, assonance, and gemination in shaping the aesthetic integrity of literary texts. Within the framework of cognitive linguistics, the verbalization of concepts such as “happiness” and “fear” in fairy-tale discourse is explored.

**Keywords:** linguopoetics, cognitive metaphor, phonopoetics, conceptualization, archetype, Uzbek folk tales, ethnocultural semantics.

I. Kirish

Badiiy matn, xususan xalq og‘zaki ijodi namunalari, til birliklarining estetik funksiyalari namoyon bo‘ladigan murakkab semantik tizimdir. Lingvopoetika bunday matnlarning fonetik, leksik va grammatik sathlarida ma‘no hosil bo‘lish mexanizmlarini o‘rganadi. O‘zbek xalq ertaklari esa milliy tafakkur va madaniy dunyoqarashni aks ettiruvchi muhim lingvokulturologik manbadir.

Badiiy matnda so‘zning nominativ funksiyasi bilan bir qatorda, uning emotsional-ekspressiv va aksiologik vazifalari ham muhim ahamiyat kasb etadi. Fonopoetika tovushlarning takrori, cho‘zilishi va intonatsion urg‘u orqali poetik ma‘noning yuzaga kelishini o‘rganadi.

Kognitiv lingvistika doirasida metafora inson tafakkurining ajralmas qismi sifatida talqin etiladi. G. Lakoff va M. Jonson nazariyasiga ko‘ra, inson fikrlashi asosan metaforik xarakterga ega bo‘lib, u real tajriba asosida shakllanadi [1]

Kognitiv lingvistika nuqtayi nazaridan metafora bu faqat til hodisasi emas, balki tafakkur hodisasidir. Lakoff va Johnson ta’kidlaganidek, inson tafakkurining katta qismi metaforik xarakterga ega bo‘lib, u bevosita jismoniy va sezgi tajribasi asosida shakllanadi.

Bu kognitiv mexanizm ertaklarda juda faol ishlaydi: qo‘rquv sovuqlik orqali, maqsadga erishish ovqat yeyish orqali, baxt esa qush, yulduz yoki omad obrazlari orqali tasvirlanadi. Lingvokulturologik yondashuv bu metaforalarning tasodifiy emas, balki muayyan xalqning tarixiy taraqqiyoti, turmush tarzi, mentaliteti va qadriyatlari bilan bevosita bog‘liq ekanini ko‘rsatadi.

Ertaklarda ko‘chim ifodalovchi vositalar turli darajalarda namoyon bo‘ladi. Ba’zan ular alohida so‘z va iboralar shaklida (“junlari tikka bo‘ldi”, “baxt qushi qo‘ndi”, “yulduzi porladi”), ba’zan esa butun syujet va obrazlar tizimini shakllantiruvchi asosiy mexanizm sifatida yuzaga chiqadi. Masalan, qo‘rquvning sovuqlik bilan bog‘lanishi insonning fiziologik holatidan kelib chiqib, “qotib qolish”,

“eti junjikish” kabi ifodalarda aks etadi. Shu bilan birga, olov obrazi qo‘rquvga qarama-qarshi qo‘yilib, jasorat, qalb, hayot va himoya ramzi sifatida talqin qilinadi.

Ertaklarda qo‘rquv dev, jin, ajdar, arvoth kabi g‘ayritabiiy mavjudotlar orqali personifikatsiya qilinadi.

Ertaklarda keng uchraydigan yana bir muhim ko‘chim modeli maqsadga erishish va ovqat yeyish o‘rtasidagi bog‘liqlikdir. Ovqat hayotiy resurs bo‘lgani sababli u kuch, qudrat va g‘alaba ramziga aylanadi. Shu bois ertak qahramonining ko‘p yeyishi, ovqatni tanlamasdan iste‘mol qilishi yoki “yana so‘rashi” uning sinovlarga bardosh bera olishi va yovuz kuchlarni yengishga loyiq ekanini bildiradi. Aksincha, ovqat yeyolmaslik yoki tanlab yeyish qahramonning zaifligi sifatida talqin qilinadi. Bu metafora ko‘pincha syujet rivojida hal qiluvchi rol o‘ynab, qahramonning initsiatsiya bosqichidan o‘tishini ta‘minlaydi.

Ko‘chim ifodalovchi vositalarning eng muhim va mazmunli namoyon bo‘lish sohalaridan biri “baxt” konseptining verballashuvidir. Baxt tushunchasi har bir madaniyatda o‘ziga xos tarzda konseptualashtiriladi va ertaklarda bu farqlar yaqqol ko‘rinadi. O‘zbek xalq ertaklarida baxt ko‘pincha mehnat, sabr-toqat, halollik va ezgulik orqali qo‘lga kiritiladigan oliy ne‘mat sifatida tasvirlanadi.

“Baxt qushi qo‘ndi”, “yulduzi porladi”, “baxt eshigi ochildi”, “baxt unga kulib boqdi” kabi metaforik ifodalar orqali baxt personifikatsiya qilinadi va u qahramonning ichki fazilatlarini bilan bevosita bog‘lanadi. Syujetlarda qahramon ko‘pincha ko‘plab sinovlardan o‘tadi, sabr qiladi, halol mehnat qiladi va oxir-oqibat baxtga erishadi.

Ingliz xalq ertaklarida esa “baxt” konsepti ko‘proq omad, tavakkal, jasorat yoki sehrli yordam bilan bog‘lanadi. Bu ertaklarda baxt ko‘pincha kutilmagan voqealar, sehrli buyumlar yoki g‘ayritabiiy yordamchilar orqali namoyon bo‘ladi

Ertaklarda ko‘chim ifodalovchi vositalar nafaqat alohida metafora yoki obraz sifatida, balki butun syujetning “ichki karkasi” sifatida faoliyat yuritadi. Konseptual metaforalar qahramonning yo‘lga chiqishi, sinovlardan o‘tishi, yengilishi yoki

g'alabasi va oxir-oqibat baxtli yakunga erishishini ichki mantiq bilan bog'lab turadi. Lingvokulturologik nuqtayi nazardan esa bu ko'chimlar xalqning madaniy xotirasi, qadriyatlari va mental modellari til orqali avloddan avlodga uzatilishining samarali vositasi hisoblanadi.

Ertaklarda jonlantirish keng qo'llaniladi. Tabiat va hayvonlar insoniy xususiyatlar bilan tasvirlanadi.

Ramzlar:

o'rmon — sinov

yo'l — hayot

uy — xavfsizlik

### 3.6. Fonopoetik vositalarning estetik samaradorligi

alliteratsiya

assonans

geminatsiya

onomatopeya

Ular matnning ritmik va emotsional ta'sirini kuchaytiradi.

Ko'chimlar milliy tafakkur va madaniy qadriyatlarni ifodalaydi. Baxt va qo'rquv konseptlari inson tajribasi va madaniy kodlar bilan uzviy bog'liq.

Ertaklarda ko'chim ifodalovchi vositalarning lingvokulturologik verballashuvi til, tafakkur va madaniyat o'rtasidagi uzviy aloqaning yorqin namunasi.

Foydalanilgan adabiyotlar

Lakoff G., Johnson M. *Metaphors We Live By.* – Chicago, 2003.

Йўлдошев М. Бадиий матннинг лингвопоэтик тадқиқи. – Т., 2009.

Турсунова О. Ўзбек тили фонетик бирликларининг поэтик имкониятлари.  
– Farg‘ona, 2019.

Дониёров Х., Йўлдошев Б. Адабий тил ва бадиий стиль. – Т., 1998.

Ruiz J.H. Conceptual metaphors in fairy tales. – 2007.

Абдуллаев А. Ўзбек тилида экспрессивликнинг ифодаланиши. – Т., 1983.